



## O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA ONA OBRAZINING BADIY TALQINI

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Filologiya  
va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi*

*Ashuraliyeva Jasmina*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola mashhur yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi haqida. Qissada keltirilgan voqealar bayoni va hikoyalardagi asosiy qahramon “ona” obraziga to‘xtalamiz. Shu bilan birga O‘tkir Hoshimovning adabiyot ixlosmandlari uchun yaratgan asarlari xususida va adib haqida keltirilgan tanqidchi olimlarning fikrlari haqida mulohaza yuritiladi. Qissada keltirilgan hikoyalar badiiy tahlil qilinib, ularda keltirilgan obrazlar badiiy o‘rganildi.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy asar, qissa, hikoya, obraz, sujet chizig‘i, kompozitsiya, janr.

**Annotation.** This article is about the story "Dunyoning ishlari" by the famous writer Otkir Hoshimov. We will focus on the description of the events in the story and the image of the main character "mother" in the stories. At the same time, we will consider the works created by Otkir Hoshimov for literature lovers and the opinions of critical scholars about the writer. The stories in the story are artistically analyzed, and the images presented in them are artistically studied.

**Keywords:** Fiction, story, narrative, image, plot line, composition, genre.

**Аннотация:** Данная статья посвящена рассказу «Dunyoning ishlari» известного писателя Откира Гошимова. Мы сосредоточимся на описании событий в рассказе и образе главной героини «матери» в произведениях. Одновременно мы рассмотрим творчество Откира Гошимова для любителей литературы и мнения критиков о писателе. Рассказы подвергаются



художественному анализу, а представленные в них образы изучаются художественно.

**Ключевые слова:** Художественная литература, рассказ, повествование, образ, сюжетная линия, композиция, жанр.

## KIRISH

Taniqli yozuvchi O‘tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkent shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi. Adib 1958-yili maktabni bitirib, Toshkent Davlat universiteti jurnalistika bo‘limining avval sirtqi, so‘ngra kunduzgi bo‘limida o‘qib, 1964-yilda tugatadi. O‘tkir Hoshimov o‘zining mehnat faoliyatini “Temir yo‘lchi” hozirgi “O‘zbekiston ovozi”, “Toshkent haqiqati”, “Toshkent oqshomi”, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyatida, “Sharq yulduzi” jurnalida bosh muharrir hamda 1995-yildan 2005-yilgacha O‘zbekiston Oliy Majlisining Matbuot va axborot qo‘mitasi raisi sifatida olib borgan. Keyinchalik adib “Teatr” jurnalida muharrirlik qilgan. O‘tkir Hoshimovga samarali ijodiy mehnat faoliyati uchun 1991-yil “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni berilgan. Adib “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan. O‘tkir Hoshimov o‘z davrining yetuk shoir va yozuvchilari jumladan Abdulla Oripov, Omon Muhtorov, Shukur Xolmirzayev singari adiblari bilan zamondosh bo‘ldi. Va adabiyot olamiga kirib keldi. Shu davrda o‘z iste‘dodi va izlanuvchanligi, yozgan asarlari bilan o‘z davrining yetuk mutaxassislari, adabiyotshunos olimlarining nazariga tushadi. Ya’ni Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda kabi adabiyotning yetuk mutaxassislari adibning ijodiga baho berdi[5]. Qolaversa, bunday insonlarning nazariga tushish ham katta e’tibor va adibning ijodiy salohiyati yuqoriligidan dalolat berar edi. O‘tkir Hoshimovning yoshlik yillariga nazar solsak, uning bolaligi urush yillariga to‘g‘ri keladi. Ko‘rinib turibdiki, bu davrda insonlarning turmush tarzi va imkoniyatlari cheklangan davr edi. Adibning bolalik yillari qiyinchilik va muhtojlikda kechdi. Ammo yozuvchi bu muommolarni mardona yengib o‘tdi.



## ASOSIY QISM

Adibning ilk kitobi “Po‘lat chavandoz” ocherklar to‘plamidir. Birinchi yirik nasriy asari “Cho‘l havosi”, so‘ngra “Odamlar nima derkin”, “Shamol esaveradi”, “Qalbingga quloq sol”, “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki karra ikki-besh” qissalari hamda “Nur borki soya bor”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlari nashr etilgan. Adibning asarlari o‘zining badiiy xususiyati va estetikasi bilan o‘quvchini ta’sirlantiradi. Asarlarining syujet chizig‘i va kompozitsiyasi insonni asar ichida yashashga majbur etadi. Har bir adabiyot o‘quvchisi uchun yangi olamni yaratishga asos bo‘ladi. Adibning ko‘plab asarlari ekran yuzini ko‘rgan. Jumladan, “Xazon bo‘lgan bahor”, “Inson sadoqati”, “Vijdon dorisi”, “To‘ylar muborak”, “Qatag‘on”, “Sizdan u gina, bizdan bugina” kabi drama, komediyalari bir qator kinossenariylarning muallifidir. Adibning mashhur asarlaridan biri “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” pand-nasihath ruvida yozilgan falsafiy asar bo‘lib ijodkorning hayoti davomida orttirgan tajribasi va ilm yo‘lining mahsuli. Adib hikoya janrida ham salmoqli ijod qildi. Uning “Yanga”, “Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Umr savdosi”, “Quyosh tarozisi”, “Oq bulut, oppoq bulut” kabi hikoyalari o‘quvchilar qalbidan o‘chmas iz qoldirgan. Yozuvchining asarlari zamon bilan hamnafas, xalq dardi va insonning ko‘ngil tuyg‘ularini ochib berishga qaratilgan. Adibning birgina “Ikki eshik orasi” romani haqida fikr yuritsak, yozuvchi asarda urushning chirkin yuzini, insonlarning sabr-matонатini ro‘y-rost ochib beradi. Asarni o‘qiyotgan o‘quvchi undan ta’sirlanmay iloji yo‘q. Asar o‘qir ekansiz go‘yo asar qahromoniga aylanib qolganga o‘xshaysiz. Yozuvchi asarlarida kompozitsiya, obrazlar va sujet chizig‘i juda ham mohirlik bilan ishlangan. Har bir asarida ko‘plab ma’no va mazmun mujassam. Shuning uchun ham adabiyot o‘quvchisi shunchaki asarni o‘qimaydi balki uni qalbi bilan his qiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI



O‘tkir Hoshimov haqida o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri va adabiy tanqidchi Abdulla Qahhor adibning “Cho‘l havosi” qissasini o‘qib: “Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo‘ladi. ... shu alanga hech qachon pasaymasin, ijodingiz hech qachon tutamasin!” deya tilak bildiradi[3]. Albatta bu tilaklar ijobat bo‘ldi. Adibning ijodi sermahsul va hosildor. Shunday o‘quvchi shuurini o‘ziga tortadigan asarlardan yana biri bu “Dunyoning ishlari” qissasi hisoblanadi. Yozuvchi asar haqida: “Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz inson- onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqat ba‘zilarining ismi o‘zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog‘langan. Dunyoda hamma onalar farzandiga bo‘lgan munosabat bobida bir-biriga juda o‘xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag‘ishlanadi, aziz Onajonlar!”[1.3b]. Ko‘rinib turibdiki, bu asar yozuvchining onasi bilan boshidan o‘tkazgan voqea va hodisalari haqida. Asarni 1982-yilda yaratadi. Asar hikoyalardan tashkil topgan. Asarda 33 ta hikoya mavjud bo‘lib bular quyidagilar: “Oq, oydin kechalar”, “Tasalli”, “Tush”, “Haqqush”, “Qarz”, “Ikki afsona”, “Gilam paypoq”, “Eng og‘ir gunoh”, “Bola yig‘isi”, “Xiyonat”, “ Surat”, Kitob”, “Mahallaning “shayxi””, “Toy”, “Qanoat”, “Sovchilar”, “Ermon buvaning tilagi”, “Mening acha xolam”, “ Imon”, “Opamni topib oldim”, “Bozor”, “Po‘st dumbali moshkichiri”, “Oltin baldoq”, “O‘ris bolaning oyisi”, “Xo‘ja”, “Oy quyoshdan nur oladi”, “Pistachi”, “Usta”, “Havas”, “Kaltakesakning dumi”, “Alla”, “Oq marmar, qora marmar”, “Iltijo”[1.206b] kabi bir-biridan ta’sirli va tarbiyaviy hikoyalardan tashkil topgan. Asar yaratilgandan so‘ng xalqimiz uni iliq kutib oldi. Adabiyot muxlislari hozirgi kungacha qo‘llaridan tushurmasdan mutolaa qilishadi. Asar haqida Said Ahmad: “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istar edim. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarni aqalli bittasini uza oldikmi, degan andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi. Qissa



bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi” deya ta’rif bergan edi[3].

Darhaqiqat qissani o’qir ekanmiz ko’z oldimizda mo’tabar onamiz gavdalanadi. Ularga ko’rsatayotgan hurmat-e’tiborimiz namoyon bo’ladi. Asarda keltirilgan hikoyalarning barchasida aziz onalarimiz ta’rifi berilgan. Qo’shimcha qilganda, “Gilam paypoq” hikoyasida o’z farzandi uchun o’zining sog’ligidan kechgan va farzandini o’zining jonidan ham sevuvchi ona obrazi keltirilgan. Hikoyada muallif o’z onasi uchun har yili gilam paypoq sotib oladi. Uni onasiga berganida onasi huddi noyob narsa olgandek hursand bo’ladi. Qo’shnilariga maqtanadi. Buni eshitgan yigit juda ta’sirlanadi. Chunki onasining oyog’i sovuq tushishi bilan qattiq og’riydigan bo’lib qolgan, bunga sabab esa yigitning bolaligida betob bo’lib qolgani, onasi uni tuzataman deb tabibga yugurgani va qishning chillasida oyog’ini sovuqqa oldirib qo’ygani bo’ladi. Ammo ona bundan afsuslanmaydi. Hatto biror marta yuziga solmaydi. O’g’lining sog’ligi o’zining sog’ligidan ustun qo’yadi. Qissaning yana bir hikoyasi “Bola yig’isi” deb nomlanadi. Bu hikoyada onalarning barchasi uchun bolalar bola ekanligi va ularni birdek yaxshi ko’rishlari tasvirlanadi. Hikoyachi va onasi opasini ko’rgani borishmoqchi bo’lganlarida ko’cha chetida uch yoshlar bir bola yig’lab, onasiga tajanglik qiladi. Bolaning ust-boshi tuproqqa belangan, qo’lidagi marojniysi oqib ko’ylagini kir qilgan edi. Shunda yigitning onasi mashinani to’xtatishini aytadi va bolaning yoniga borib uni ovutishga harakat qiladi. Ularni mashinaga o’tqazishadi. Albatta yigitning bundan jahli chiqadi chunki o’rindiqqa yangi g’ilof to’shagan bola esa uni kir qilgan edi. Mashinaga o’tirishgach bola yig’idan to’xtaydi. Ular bekatda tushib qolishadi. Yigit esa onasiga birovlarining bolasi bilan nima ishingiz bor deya jahl qiladi. Tabiatan jahl qilmaydigan ona, birdan jahl qiladi va yigitga “sen ham bolamisan, sen ham odammisan axir”, deya kokiydi. Vaqt o’tgandan so’ng esa yozuvchi shu voqelarni eslab onalarning biz tushunmaydigan va bizning o’lchovimizga sig’maydigan o’z olami borligini his qiladi. Haqiqatdan ham onalar



uchun bolaning yaxshi yomoni va katta- kichigi bo‘lmaydi. Onalarimiz barchamizni birdek yaxshi ko‘radi. Ular uchun katta bo‘lsak ham yosh boladek parvarish qiladi.

Yozuvchi bu dunyoda qilayotgan yaxshi amallaridan faxrlansa, ayrim ishlaridan xafa bo‘ladi. Ba’zi vaqtlarda biz uchun aziz bo‘lgan insonlar uchun vaqt ajratolmaymiz, ularga xohlaganlaridek e’tibor bera olmaymiz. Aynan yozuvchining “Surat” hikoyasi shu haqida. Hikoyachining onasi u bilan bir bora suratga tushishni xohlaydi. Ammo yigit buni rad etadi. Onasi esa “bolam men ertaga o‘laman” degan gapni aytganda o‘g‘li uchun men qo‘shnikigiga chiqib kelaman tarzida eshitiladi. Ammo haqiqatdan ham onasi olamdan o‘tadi. Yigit uchun surat orzuga aylanadi. Afsuski, endi vaqtni ortga qaytarib bo‘lmas edi. Qissaning boshqa “Alla”, “O‘ris bolaning oyisi”, “Iltijo” hikoyalarida ham onalarga e’tirof madh etiladi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimov qalami o‘tkir yozuvchilar sirasiga kiradi. Adibning har bir asari bir olam. Har bir olamning o‘z qahramoni bor. Yozuvchining asarlari zamon va makonga maslashadi. Davrning dolzarbligini va achinarli ahvolini ochib beradi. Shu bilan birga insonlarni mehr-muruvvatga, insofli va diyonatli bo‘lishga chaqiradi. Asar qahramonlarining ruhiy holati o‘z-o‘zidan o‘quvchiga o‘tadi va uni kuchli hayajonga soladi. Yig‘latadi, kuldiradi va xulosa chiqarishga undaydi. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi onalar madhiga bag‘ishlangan asardir. Onalarning naqadar ulug‘ zot ekanligi dalillab ko‘rsatilgan. Bu asarni o‘qigan adabiyot ixlosmandi albatta o‘ziga huddi yozuvchi singari bir qancha savollarni ko‘ndalang qo‘yadi. O‘ylaymizki, bu asarni o‘qigan o‘quvchi albatta oldin qilgan xatolaridan xulosa chiqaradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hoshimov O ‘. Dunyoning ishlari. Qissa. – Toshkent: Qaldirg‘och, 2018.
2. Hoshimov O ‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Nurli dunyo, 2022.



3. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
4. Abdullayeva. O. Adabiy ijodni o‘rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational science. 2021. – P. 176-180.
5. Xurshid Davron kutubxonasi. 2026.
6. “Yoshlik” jurnali. 2011, 3-son.